



MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING OYNA JURNALIDA BA'ZI FIQHIIY MASALALARGA OID QARASHLARI

Najmiddinov Bourmirzo Zuhridin o'g'li
International Islamic Academy of Uzbekistan,
11, A. Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7013629>

ARTICLE INFO

Received: 01st August 2022
Accepted: 03rd August 2022
Online: 05th August 2022

KEY WORDS

Turkiston, Mahmudxo'ja Behudiy, diniy ma'rifiy hayot, mutaasiblik, Oyina, kiyinish masalasi, tashabuh masalasi, jadid matbuoti.

Turkiston mintaqasining XX asr boshlaridagi bo'lib o'tgan ijtimoiy-iqtisodiy, manaviy va ma'rifiy hamda siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisi va bu o'zgarishlar tashabbuskori Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining ko'plab maqolalari va asarlarida xalqni manaviy dunyoqarashini boyitish so'ngra bu orqali yurtimizni mustaqil davlatlar qatoriga qo'shish, o'sha paytdagi mustamlaka zulmidan qutqirish kabi g'oyalarni keng targ'ibotchisi bo'lgan edi. Bu shaxs yuqorida takidlab o'tilganidek juda ko'plab darsliklar, maqolalar va boshqa turga oid asarlar yaratib shu zamondagi xalqning dunyoqarashini o'ziga xos tarzda ochib berishga harakat qilgan. Behbudiy o'zining maqola va boshqa turdagi asarlarini vaqti davr hisoblanmish matbuot organlarida chop ettirib keng xalq ommasiga yetkazib bergan. Unga bu jihatdan katta amaliy yordam bergan matbuot nashri bu avvalgi sahifalarda aytganimizdek o'zi tomonidan asos

ABSTRACT

Turkiston mintaqasining XX asr boshlaridagi bo'lib o'tgan ijtimoiy-iqtisodiy, manaviy va ma'rifiy hamda siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisi Behbudiyning yoshligidan diniy va dunyoviy bilimlarni olib katta bo'lganligi kelajakda xalqqa qarta yozilgan ko'plab maqolalarida o'z aksini topgan. Uning o'sha davrda Turkiston aholisining asosiy qismi e'tiqod qilib kelgan muqaddas dini bo'lmish islom dinini keng xalq ommasiga tog'ri yetkaza olishi uchun qo'lidan kelgancha bor imkoniyatlarini ishga solib harakat qilgan.

solingan "Oyna" jurnali bo'ldi desak yanglishmagan bo'lamiz. Uning juda ko'plab maqolalari shu jurnal orqali dunyo yuzini ko'radi. Bu jurnal dastlab 1913-yil 20-avgustdan chiqq boshlagan. Bu suratli haftalik majalla asosan O'zbek tilida bo'lib, unda ixcham forsiy sher, maqola, ruscha e'lonlar ham berib borilgan...Boshida bu jurnal haftada bir marta va ikkinchi yildan o'n besh kunda bir marta chiqadigan bo'lib, yigirma oycha davom etgan- deb yozgan edi Said Ziyo. Behbudiyning yoshligidan diniy va dunyoviy bilimlarni olib katta bo'lganligi kelajakda xalqqa qarta yozilgan ko'plab maqolalarida o'z aksini topgan. Uning o'sha davrda Turkiston aholisining asosiy qismi e'tiqod qilib kelgan muqaddas dini bo'lmish islom dinini keng xalq ommasiga tog'ri yetkaza olishi uchun qo'lidan kelgancha bor imkoniyatlarini ishga solib harakat qilgan. U islom dinini keng xalq ommasiga yetkazish uchun avvalambor islom tarixini yoritib uni



ixcham xolda keng ommaga ulashish borasida mehnat qilib islom tarixini o'zida mujassam etgan qisqacha holda yozilgan "Muxtasar islom tarixi" asarini yozadi. Bu asarni yozishidan maqsad o'rta asrlar davridan qolib ketgan diniy noto'g'ri tushunchalarni oddiy xalq ongidan olib tashlash va islomni sof tushuntirishdan iborat bo'lgan. Behbudiydan so'ng xuddi shu nomda islom tarixiga oid bo'lgan asarlarni Abdurauf Fitrat va Abdulla Avloniyilar hamyozib xalq e'tiboriga havola etishgan. Behbudiyning maqolalarida diniylik masalasi dunyoviylik masalalari bilan solishtirilgan holda yoritib berilgan. Diniy tushunchaga kirib qolgan ba'zi bir noto'g'ri holatalrni xalqqa to'g'ri yetkazib xalqni dunyo bilan birga rivojlanishga chorlagan. Bazi mutaasiblik holatlarini qorqlagan. Uning "Oyna" jurnalida diniy marifiy mavzulrga oid bir qator maqolalari chiqqan bo'lib, ular quydagi nomlar ostida xalq e'tiboriga xavola etilgan: "Kiyim va tashabbuh masalasi" (1914-yil 14-iyun 34-son), "Qur'oni karim tarixiga bir nazar" (1915-yil 30-yanvar 8-son), "Avvalgi musulmonlarda madaniyat" (1915-yil 28-fevral 10-son, 16-aprel 12-son), "Tahsil va safar zamoni va taom" (1915-yil 28-fevral 10-son) kabi ijtimoiy-diniy mavzularga bag'ishlangan maqolalari chop etilgan. Bu maqolalarda xalqda mavjud bo'lgan bazi bir savollarga aniqliklar kiritilgan va ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Jumladan uning "Kiyim va tashabbuh masalasi" deb nomlangan maqolasida Turkiston diyori aholisi va ziyolilar bilan mustamlakachi xalq o'rtasida vujudga kelgan tafovut haqida so'z ketadi. Bu maqolada shunday deyiladi: "Bir necha yildan beri ba'zi majlislarda ruscha furma kiyimak va «tashabbuh» masalasi xususida uzun mubohasalar bo'lub, ba'zan bu

mubohasalar munoza'a ila tamom bo'lrki, bir necha martaba ko'zimiz ila ko'rduk. Majlisdagi zotlarning barchasi avom sinfidan bo'lsa edi, biz alarning so'ziga ahamiyat bermas eduk. Lekin bir uzr sababli fo'rma kiyganlar haqida akfor hukmlarini aksar vaqt muhtaram ulamomiz og'izlaridan eshitarmiz. Fo'rma kiygan nari tursin, hatto uyining tagini pol va ustini tunuka qilganlarni yoki uy ichida ustal, ustol, suvrat kabi narsa quyganlarni akfor qilinur. Bu masala hadida Turkistonning har bir shahrida doimo mubohasalar bo'lub turadur. Ba'zan jaridalarga ham yoziladur. Agar filvoqe' furma kiyimoq ila yoinki ozgina tashabbuh ila odam kofir bo'laversa, bul suvratda musulmonlarning holi mushkul bo'lur. Chunki zamon va madaniyatning iqtizosi biz, Turkiston musulmonlarini fo'rma kiyimoqga va olati madaniya is- te'mol etmakga majbur qilishi tabiiydur. Chunonchi, biz bu kun o'g'limizni shahar maktabi va gimnaziyaga quymakchi bo'lsak yoki bir necha yildan so'ng Turkiston musulmonlaridan askar olinsa, Ul holda, albatta, ruscha fo'rma, shapka kiyimoq majburiy bo'lur. Hozirda bu ikki holning avvalgisini ko'rub ham majburiy suratda qabul qilub turubmiz. Zamoni kelganda, ikkinchisini ham qabul qilsak kerak. Endi kelayluk juz'iy tashabbuhlar masalasigaki, bu: kursi (ustul)ga o'turmoq, qoshuq va chinkicha iste'mol etmak, medol taqmoq, havoning issig'ligi uchun bosh yalang'och o'turmoq kabi shaylardan iboratdur. Agar bu juz'iy tashabbuhlar ilada kishi kofir bo'laversa, bas, yer yuzida bir nafar ham musulmon qolmasligi lozim kelurki, bu mumtane'dur. Chunki zamonning mururi ila ba'zi rasm va odatlar doimo o'zgarub turadurki, bu o'zgarish bobomiz hazrati Odam zamonidan beri voqe' bo'lub kelmoqdadur. Munday rasm



va odatlar ichida foydali va yaxshisi bo'lganidek, yomon va zararligi ham bordur. Chunonchi, burung'i zamonda isroflilik to'y va aza va bazmi javon kabi yomon odatlarimiz yuq edi, so'ngra paydo bo'ldi. Qabul etduk. Emdid muning qo'lidan osonlik ila qutula olmay turubmiz. Agarda mundan so'ng yomon odatlarni tashlab, aning o'rniga din va dunyomizga foydalik odatlarning qabuli sadrig'a tutunsak, bu to'g'ruda shariatimiz ham mone' bo'lmasa kerak. Maqsadimiz shariat nuqtai nazaridan kiyim va tashabbuh masalasini bayon etmak ediki, bu haqda o'z tarafimizdan hech nimarsa demay, sobiq Misr muftisi ulamoi shahir marhum Muham-mad Abduh hazratlarining bergan fatvosini tubanda yozmoq ila iktifo qilurmiz. Mushorun ilayhi deyur: «ishlyapa» va «shapka» va bopqa Ovrupo kiyimlarini kiymoq shiariati islomiyacha hech bir zararlik emasdur. Ya'ni shar'an mutlaqo durustdur. Munga inkor qiluvchilar, sunnati rasul, tarixi ummatdan xabarsiz odamlardur. Bularning dalillari ham «Man tashabbaha biqavmin fahuva minhum» hadisidur. Holbuki bu haadis ba'zi ulug' olimlarning so'ziga qaraganda, zaif hadislardandur. «Mavzu'at ul-kubro lil-allamati ash-Shavkoni razhmatullozhi taolo» har holda ba'zi zaif bo'lmagan taqdirda ham bularning maqsudiga dalil bo'lmaydur. Maa mo fiyh shuning ila istidlol etarlar, to'g'risi, istidlol etgan kishilarga taqlid etarlar. Holbuki, bu hadisning ma'nosi butun boshqadur. Mundagi tashabbuhdan murod o'zga dinda bo'lgan xalqning dinlarini va axloqi diniyalarini ulug'lab, ani yahshi deb uxshamoqni tilamakdur. Yo'q esa ahodisda sobitdurki, rasulimiz sallallodu alayhi vasallam rumlar jubbasini, kisroyi taylasonlarini kiyubdurlar («Miroqot ul-

mafotih», jildi avval, sazhifa 341 va soir) va ashobil kiromga ham shunday kiyimlar kiyganlari uchun hech narsa aytmabdurlar. Va «Sahihi Muslim»da «Rasululloh sallallohu alayhi vasallam hind majusiylarining boshlariga kiyadurgan ikki quloqli narsalarini kiygan» deb naql etilmishdur. Va «Mezoni kubro» kitobida ham Imom Molikning majus podshohi hadya etub bergan «kuloh»ni kiyganlari zikr qilingandur. Ashobi kirom shaharlarning fathi uchun turli yerlarg'a tarqalganda qaysi shaharni olsalar, shul shahar xalqining kiyimlarini kiygandurlar. Hatto ba'zan nasoro qizlarini nigohlab olgandurlar. Magar hazrat Umar raziya'llou andu «Ijobi maslahat» uchun ziyyi a'ojim (ajamlar iyofatini) tashlangiz, deb amr yozibdurlarki, mundan maqsadlari tashabbuhdan saxlanmoq emas, balki «kibru tarrafa»ga sabab bulmasundur. Tarixga qarasangiz ko'rarsizki, xulafodan al-Mansur Billoh musulmonlarga kufforlar kulohlari kabi kulohlar kiymoqqa amr etgan va munga hech kim inkor etmagandur. Demakki, «man tashabbaha»dan murod «tashabbuh fillibos val-hay'at» emasdur. Yo'qsa, payg'ambarimiz va burungi dindoshlarimizning shunday bo'lmoqlari lozim bo'ladur. Agarda kiyim kiymoq umuri shar'iyadan bo'lsa edi, bu to'grida payg'ambarimizga mutoba'at etmak vojib bo'lur edi. Holbuki, bizlar kiyadurgan liboslarning ko'bisi payg'ambarimiz kiygan liboslariga o'xshamaydur. (Ushbu xususda so'z ko'b edi. Bul yerg'a muxtasar qilindi.) Maqola bu sonda to'liq keltirilmagani ham buning o'zidan ham ko'rinib turubdi.

Behbudiy hazratlarining xalqqa nisbatan kuyunchaklik bilan yozgandan ma'lumki bu maqolani u yog' yoki bu yog'dan olib yozmagan. Har bir fikrning



dalili bilan keltirilgani maqolani ilmiy ahamiyatini yuksalkligini ko'rsatadi. Bu maqolada Behbudiyning xalqqa qilgan malum bir ma'nodagi murojati yotadi yani biz o'zimiz bilan o'zimiz o'ralashib dunyo rivojlanishidan ortda qolganimiz va bu qoloqlik oqibatida mustamlaka holga tushib qolgaligimiz kabi manoni ham takidlagandek bo'lgan. Maqolada asosan aholining o'sha davrdagi diniy dunyoqarashi naqadar torayib ilimsizlik oqibatida arzimagan mayda narsalarga xalq va shu vaqtdagi ba'zi ulomolarni

e'tibori kuchayib ketganligi bilinar bilinmas tanqid ostiga olingan. Bu maqolada muallif yonma yon ravishda kiyinish, o'xshashga harakat qilishlik va to'y va aza marosimlarida ortiqcha sarf harajatlar ko'pyib qolganligi haqida o'z fikrlarini keltirib xalqni bunday sarf-xarajatlardan qutilishga ortiqcha dabdaba va isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslikka chaqirgan edi. Bu bilan u islomdini va undagi tushunchalarni to'g'ri izohlashga uringan.

References:

1. Said Ziyo. Tanlangan asarlar. - T. 1974.
2. Mahmudxo'ja Behbudiy Tanlangan asarlar 1-jild. - T.: Akademnashr, 2018.
3. Oyna jurnali 1914-yil 14-iyun 34-son.
4. <http://kh-davron.uz>